

**ЎЗБЕК  
ФИЛОЛОГИЯСИНИНГ  
ДОЛЗАРБ  
МУАММОЛАРИ**



**III**

## **ТИЛШУНОСЛИК**

<i>Б. Менглиев.</i> Тил таълимида социолингвистик компетенция.....	119
<i>Т. Эназаров, Х. Даурова.</i> “Ўзбек номшунослиги”да қўлланадиган тахлиллар талқини.....	121
<i>Т. Тоғаев.</i> Чор Россияси мустамлакачилиги даврида ўзбек тилини ўрганиш тарихидан.....	128
<i>Н. Бекмухамедова.</i> Танишув эълонларининг ўхшаш ва фарқли жиҳатлари.....	131
<i>Шукурова.</i> “Ўзбек тили изоҳли лугати”даги поэтизмлар.....	132
<i>С. Азимова.</i> Таржима асарлар таҳлили ҳақида мулоҳазалар.....	134
<i>Б. Қодирова.</i> Шахс феъл-атворини билдирувчи сўзларнинг лисоний-маданий хусусиятлари.....	138
<i>Д. Рустамова.</i> Оила ва қариндошлик ҳақидаги Ўзбек ва Корейс мақолларининг қиёсий таҳлили.....	140
<i>Г. Исқандарова.</i> Ўзбек ва Хитой болалари нутқидаги лексик бирликнинг семантик таркиби ва функциялари.....	147
<i>А. Шаймарданова.</i> Рухий ҳолатнинг субъектив эмоцияга таъсири.....	150
<i>Д. Тошева.</i> Жалолиддин Румий ижодида ҳайвон тимсолларининг ифодаланиши.....	152
<i>М. Хўжамқулова.</i> Тилшуносликда антропоцентрик ёндашув.....	156
<i>С. Ёдгорова.</i> Нутқий муносабат ҳақида.....	159
<i>С. Суюмова.</i> Бошқа тиллардан ўзлашган сўз – терминлар.....	162
<i>N. Abdikarimova.</i> Gender tilshunosligining O'zbekistonda rivojlanishi.....	166
<i>S. Ashirbayeva.</i> Koreys tilida hurmat shakllari.....	169
<i>З. Очилова.</i> Ўзбек болалари нутқида диглоссия ҳодисасининг намоён бўлиши.....	173
<i>М. Сайдалиева.</i> Интернет мулоқот феномени сифатида.....	177
<i>I. O'rozova.</i> “Qo'l” komponentli paremlar semantikasi.....	180
<i>Л. Абдуҳамидова.</i> Хорижий тиллари ўрганишининг гуманитар фанлар таракқиетидаги ўрни.....	183
<i>T. Yandashova.</i> O'zbek tilida sifatlarning uslubiy ma'no qirralari.....	187
<i>D. Yo'lchiyeva.</i> Murojaat shakllarining o'ziga xos xususiyatlari.....	189

**I.O'ROZOVA,**  
*magistr*

### **“QO‘L” KOMPONENTLI PAREMALAR SEMANTIKASI**

Polisemiya qadim-qadimdan olimlar diqqatini jalb qilgan hodisalar-dandir. (M.Koshg‘ariy, A.Zamaxshariy, A.Navoiy)<sup>1</sup> va bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, desak yanglishmagan bo‘lamiz. Polisemiya tilning boyligini, jozibadorligini oshiruvchi va taraqqiyotini ta‘minlovchi leksik hodisadir. Polisemiyaning polifunksionallikdan farq-lash lozim. Polifunksionallikning yuzaga kelishi konversiya bilan bog‘-liq. Konversiya ma‘lum bir so‘zning hech qanday affiks olmagan holda boshqa so‘z turkumi vazifasida kelishi hodisasidir.<sup>2</sup> Polisemiya bu bir so‘z yoki belgining bir necha ma‘noga ega bo‘lishi<sup>3</sup>, ya‘ni ko‘p ma‘no-lilikdir. Polisemantik so‘zlar ko‘p qirrali olmosga o‘xshaydi. Olmosning har bir qirrasini o‘zgacha jilolangan kabi polisemantik so‘z turli matnda turfa ma‘nolarda jonlanadi. Ko‘p ma‘noli so‘zlar bosh ma‘nodan hosila ma‘noning o‘sib chiqishi natijasida yuzaga keladi va metafora, metoni-miya, sinekdoxa, vazifadoshlik, tobelilik kabi lisoniy hodisalarni hosil qilishda, ko‘chma ma‘nolarni yuzaga keltirishda ishlatiladi. O‘zbek tilidagi inson a‘zolarini nomlovchi so‘zlar, asosan, ko‘p ma‘noli so‘zlar

<sup>1</sup> Mirtojiyev M.M. O‘zbek tili semasiologiyasi. T.: Mumtoz so‘z, 2010. B.158.

<sup>2</sup> Mirtojiyev M.M. O‘zbek tili semasiologiyasi. T.: Mumtoz so‘z, 2010. B.162.

<sup>3</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T.: 2007, 3-tom. B. 292.

<sup>4</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T.: 2008, 5-tom. B. 402.

sanaladi. Ushbu maqolada “qo‘l” komponentli paremalarning konnotativ ma‘no bilan bog‘liq semantikasi borasida fikr yuritimiz. *Qo‘l* leksemasi quyidagi semalarni ifodalaydi:

1. Odamning barmoq uchlaridan yelkasigacha bo‘lgan qismi, a‘zosi  
2. Shu a‘zoning bilakdan barmoqlar uchigacha bo‘lgan qismi; panja.

3. Ish-mehnat bajaruvchi a‘zo.

4. Hayvonlarning oldingi oyoqlari.

5. Barmoq.

6. Har kimning o‘ziga xos usuli, uslubi<sup>1</sup> va hakozi.

“Qo‘l” so‘zi paremalarda turlicha mazmuni ifodalashda qo‘llanadi. Masalan:

*Yurti boyning o‘zi boy, Mehnat qilganning qo‘li moy.*<sup>2</sup>

Ushbu mataldagi *qo‘l* so‘zini ikki xil ma‘noda tahlil qilish mumkin:

1. Sinekdoxa usuli orqali hosila ma‘no shakllangan. “Sinekdoxa hosila ma‘no yuzaga kelishi hodisasining o‘zbek tilida uncha keng tarqalmagan ko‘rinishlaridan biridir. So‘zning hosil qiluvchi va hosila ma‘no referentlaridan biri butunni, ikkinchisi uning bo‘lagini bildirishiga ko‘ra hosila ma‘no yuzaga keltirilishi”<sup>3</sup> sinekdoxa deyiladi. Sinekdoxaning turlari farqlanadi. Shulardan biri *butun nomidagi sinekdoxa*, ya‘ni so‘zning ma‘no hosil qiluvchi referenti butun bo‘lib, bo‘lakni ifoda etgan hosila ma‘no referentini o‘z qamroviga olgan holatdagi sinekdoxadir<sup>4</sup>; Mataldagi *qo‘l* so‘zi sinekdoxaning ayni shu usuli orqali “barmoq” hosila ma‘nosini anglatmoqda.

Bilamizki, har qanday odam, ayniqsa, o‘zbek xalqi tansiq, yog‘li taomlarni qo‘l bilan, aniqrog‘i barmoqlari vositasida olib yeydi. Barmoq bilan yeyilgan taomning inson organizmiga ijobiy ta‘siri sharq tabobatida o‘z aksini topgan. Matalda *qo‘li moy* birikuvli “barmog‘i moy” ma‘nosini bildirimoqda va bu orqali ko‘chma ma‘noda mehnat qilgan hech qachon xor bo‘lmasligi, doim to‘q va farovon yashashi uqtirilmogda.

2. Metonimiya usuli orqali hosila ma‘no shakllangan. Metonimiya hosila ma‘no yuzaga kelishining hosil qiluvchi va hosila ma‘no referentlari o‘zaro aloqador bo‘lishiga asoslangan ko‘rinishidir.<sup>5</sup> Bunda

<sup>2</sup> Misollar quyidagi manbadan olindi: O‘zbek xaqq maqollari.-Toshkent, 2013.

<sup>3</sup> Mirtojdiyev M.M. O‘zbek tili semasiologiyasi. T.: Mumtoz so‘z, 2010. B.103.

<sup>4</sup> Mirtojdiyev M.M. O‘zbek tili semasiologiyasi. T.: Mumtoz so‘z, 2010. B.105.

<sup>5</sup> Mirtojdiyev M.M. O‘zbek tili semasiologiyasi. T.: Mumtoz so‘z, 2010. B.100.

*qo'li* moy birikmasi orqali “turmush darajasi yuqori” hosila ma'nosi yuzaga chiqadi. Qadimda moy juda qimmat mahsulot sanalgan. Chunki tarkibida yog' mahsuloti bo'lgan o'simliklarni yetishtirish bilan aholining kam qismi shug'ullangan. Texnika rivojlanmagan sharoitda yog' moyjuvozlari (o'simlikdan moy oladigan tegirmon) yordamida olingan. Shu sababli moddiy ahvoli yaxshi bo'lgan oilalarda moy ko'proq ishlatilgan va aksincha. “Poraxo'r besh qo'lini og'ziga tiqadi”, “O'n qo'lim, o'n hunarim”, “Besh qo'l barobar emas” kabi xalq matal va maqollaridagi *qo'l* so'zi butun nomidagi sinekdoxa bo'lib, hosila ma'nosi yuqoridagi kabi “barmoq” referenti ma'nosini bildirmoqda.

*Mehnat qilsang qirga,*

*Qaram bo'lmassan qo'lga.*

Mataldagi *qo'l* so'zi bo'lak nomidagi sinekdoxadir. *Bo'lak* nomidagi sinekdoxa so'zning hosil qiluvchi ma'no referenti bo'lak bo'lib, hosila ma'no referenti uni o'z ichiga olishi bilan xarakterlanuvchi sinekdoxadir.<sup>1</sup> Matalda inson a'zosini anglatuvchi “qo'l” so'zi “odam”, “xo'jayin” hosila ma'nosini anglatmoqda. Barchamizga ma'lumki, o'zbek xalqi, asosan, chorvachilik, dehqonchilik bilan shug'ullangan. Bu xalq maqollari va matallarida ham o'z aksini topishi tabiiy. Yuqoridagi matalda ham shunga ishora bor. Qadimda oilasini tebrata olmagan kishilar boylardan foiz hisobiga yoki turli kelishuvlar evaziga qarz olgan. Agar qarzini qaytara olmasa o'zi yoki oilasi o'sha boy eshigida xizmatkor sifatida ishlab, qarzini uzgan. Matalda shu holatga ishora qilinmoqda. Ushbu parema semantikasida “Agar sen tinimsiz mehnat qilsang, ro'zg'oringni o'zing tebrata olasan va birovga qaram bo'lib qolmaysan” degan mazmun namoyon bo'ladi.

Agar “qo'l” so'zi o'z ma'nosida tushunilsa, matal tahlili o'zgaradi: “Mehnat qilsang birovning qo'lga qarab qolmaysan, o'z kuningni o'zing ko'ra olasan” tarzidagi mazmun anglashiladi.

*Ko'pchilik qo'l - unumi mo'l.*

Mataldagi *qo'l* so'zida yuqoridagi holat kuzatiladi. Bu o'rinda ham “qo'l” referenti shaxsga ishora qilib, “odam” hosila ma'nosini anglatmoqda. Maqolda aynan “qo'l” so'zining odamga ishora qilishi bejiz emas. Chunki jismoniy yumushlar qo'llar yordamida amalga oshiriladi. Bir odam qilishi mo'ljallangan yumush ko'pchilik tomonidan bajarilsa ish unumi va sur'ati oshadi. Matal hamjihatlikka undash, birdamlikka chaqirishdan tashqari o'zbek xalqiga xos bo'lgan hashar marosimiga

<sup>1</sup> Mirotojiev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi. T.: Mumtoz so'z, 2010. B.105.

ham ishora qilmoqda. Qadim-qadimdan o'zbek xalqi uy qurish, ariq va zovurlarni qazish, yig'im-terim kabi og'ir ishlarni hashar uyushtirish orqali amalga oshirgan. Natijada ish samaradorligiga erishilgan va o'zaro yaqinlik, hamjihatlik mustahkamlangan. Hatto hozirda ham hashar usulida faoliyat yuritish davom etmoqda, umumxalq hasharlari uyushtirilmoqda.

Tahlil natijasida quyidagilarni xulosalash mumkin:

-bir matnda lisoniy hodisaning bir necha turi kuzatilishi mumkin;

-lisoniy hodisalar paremalardagi obrazlilikni oshirish, tasviriylik va ta'sirchanlikni kuchaytirish uchun ishlatiladi; Chunki ota-bobolarimiz, ya'ni turkiy xalqlar o'z fikrini obrazli ifodalashganini, ko'chimlardan ko'p foydalanganini bilamiz.

-paremalarda xalqning ijtimoiy-madaniy hayoti, madaniyati aks etadi;

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, paremalar har xil aspektda tadqiq qilinishi lozim bo'lgan tengsiz xazinadir. Ularda qo'llangan so'zlar, ifodalangan ma'no qirralarini tadqiq qilish, obrazlilik, tasviriylikni yoritish, lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish bugungi kun tilshunosligining dolzarb masalalaridan biridir.